

TILSHUNOSLIGIMIZDA KOD TUSHUNCHASI VA ANTROPOSENTRIK
PARADIGMA

Maxamatova Maxliyo

O'zMU O'zbek tilshunosligi kafedrası stajyor-o'qituvchisi.

+99897-140-16-17.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1566467>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollardagi lingvomadaniy kodlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Lingvomadaniy kodlar haqida tushunchalar. Lingvomadaniy kodlarning o'rganilishi.

Tilshunosligimizda lingvomadaniy kodlarning ifodalanishi haqida umumiy ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar. Kod, lingvomadaniy kod, antroposentrizm, lisoniy ong, lisoniy yondashuv.

Tilshunoslikda antropotsentrik paradigma rivoji bilan tilga muloqot yoki olamni idrok vositasigina emas, o'zi tegishli bo'lgan millatning madaniy kodlari yig'indisi sifatida ham qarash mustahkamlanib bormoqda. Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, pretsedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi, olamning qadriyatli manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalarni olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega¹. Darhaqiqat, til millat mentalitetiga ko'priq vazifasini o'tashi mumkin. Tilning turg'un birliklarida yashiringan madaniyat kodlarini aniqlash va to'g'ri talqin eta olish to'laqonli kommunikatsiyaga kirishishning shartiga aylanadi. Zero, til va madaniyat o'zaro chambarchas bog'liq, kognitiv jarayonlar barcha insonlar uchun umumiy bir xil bo'lgani holda, umumbashariy til ham, umumbashariy madaniyat ham mavjud emas. Shu bois olamni qabul qilish, kategoriyalashtirishda madaniyatlar, demakki, tillar o'rtasida o'ziga xos farqlar mavjud. V.M.Savitskiy yapon yozuvchisi I.Takubokuning "qumli sohilda yosh kelgan ko'zlarini artmasdan dengiz qisqichbaqasini o'ynatib o'tirgani"² tasvirlangan she'ri yaponlar uchun vatanni ifodalovchi juda ta'sirli vosita bo'lib xizmat qilishini, rus millati uchun esa dengiz qisqichbaqasining chayondan aytarli farqi yo'qligi, uning bunday ma'noni tashiy olmasligini bayon etadi³. Xuddi shuningdek, o'zbek shoiri M.Yusufning ona Vatanga muhabbat aks etgan "Parijning eng go'zal restoranlarin//Bitta tandiringga alishmasman men" misralari o'zga lingvomadaniyat vakili tomonidan o'zgacha talqin etilishi mumkin. Bunda *tandir* milliylik ruhiyati aks etgan realiya bo'lib, uning o'zga yurt restoranlaridan ustun qo'yilishi orqali Vatanga muhabbat tuyg'usi ifodalangan.

Ma'lumki, *kod* va *belgi* tushunchalari belgilarni o'rganuvchi fan – semiotikaning markaziy tushunchalari hisoblanadi. "Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi"⁴. Dastlab matematika va informatika fanlari doirasida keng qo'llanilishda bo'lgan kod tushunchasi gumanitar sohalarda ham qo'llanila boshlandi. Bunda belgilik xarakteriga ega til hamda madaniyat alohida ahamiyatga ega. Ular belgilar vositasida xalqning tajribasi va me'yorlarini kelgusi avlodga yetkazadi.

¹ Худойберганава Д. Лингвокультурологияда маданий код тушунчаси ва талқини//Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 15.

² Савицкий В.М. Лингвокультурные коды: к обоснованию понятия // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Лингвистика. №2. – С. 57.

³ Савицкий В.М. Ўша ерда.

⁴ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 57.

Kod haqida gapirganda muhim bir jihat e'tiborga olinishi lozim – kodlashtirilgan axborot – shifrlangan axborotdir, bunda deshifrovka bosqichi bo'lishi shart. Bu borada M.L.Kovshovaning izohi diqqatga sazovor: "Semiotikada *kod* belgilar sinfini hamda ularning interpretator tomonidan "o'qilish" qoidalarini ifodalaydi, ular, o'z navbatida, u yoki bu sohadagi bilim, u yoki bu madaniyat bilan, interpretatorning kompetensiyasi bilan shartlangan bo'ladi. Shunday qilib, semiotikada *belgi* hamda uni mazmunan to'yintiruvchi, interpretator uchun shifrlangan axborotni "o'qish" imkonini beruvchi *kod* ajratiladi"⁵. Masalan, xitoylarda qizil rang omad va xursandchilik ramzi hisoblanadi⁶. Ammo rus madaniyati stereotiplariga ko'ra ahmoqning yoqtirgan rangi qizildir. Qizil qalpoq, qizil kiyim, qizil etik uning doimiy hamrohlari ekaninini rus tilidagi bir qator maqol va ertak motivlari tasdiqlaydi⁷. Ko'rinadiki, madaniyat kodlarini dekodlash lingvomadaniy kompetensiyani talab etadi.

N.F.Alefirenko obraz, tasavvur va tushunchalarni olamning intellektual-emotiv interpretatsiyasi aks etgan mantiqiy-epistemologik strukturalar sifatida ta'riflaydi. Konsept lisoniy belgining paydo bo'lishiga asos hisoblanadi, chunki konseptual yukni tashish, ifodalash va boshqa odamlarga etkazish uchun belgi kerak bo'ladi⁸.

Turli belgilar alohida fan sohalarida hamda kundalik turmushda keng qo'llanadi. Inson o'z olamini belgilar bilan to'ldirib borishining sababi axborotni ixcham qobiqda etkazish, tejamlilikka intilishda, deb hisoblash mumkin.

Axborotni hajman kichik bo'lgan shartli birliklar – kodlar bilan ifodalashi uning hayot kechirishida va kommunikatsiyaga kirishuvida universal vosita bo'la oladi. Shunday qilib, semiosfera inson hayotida katta ahamiyatga ega. Insonning universal semiosferasida asosiy kod bu tildir⁹. Ya'ni til orqali har qanday semiotik sistemani kodlashtirish mumkin. Madaniyat ham, o'z navbatida, o'zining semiosferasiga ega. Bunda ramzlar, urf-odat, an'ana-marosimlar, diniy rivoyatlar kabi turg'unlik kasb etgan birliklar madaniyat belgilarini tashkil etadi. Darhaqiqat, "insonning turmushida madaniyatga **dahlsiz** bo'lgan hech nima yo'q. Masalan, mehnat madaniyati, kiyinish, turmush, muloqot, ovqatlanish madaniyati haqida gapirish mumkin.

Qayerda madaniyat bo'lsa, u erda belgi kuzatiladi, kiyinish uslubi, xona dizayni, ovqatlanish xarakteri – barchasi belgili aspektga ega bo'ladi"¹⁰.

Madaniyatning aniqlanishi qiyin bo'lgan asosiy tayanch kodlari shakllanishi anchayin uzoq vaqtni talab etadi va ularning o'zgarishga uchrashi ham qiyin hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra esa ayrim madaniyatning ayrim kodlarini uning konstantalari hisoblash mumkin, agar ular yo'qolsa, madaniyat muqarrar ravishda o'zgaradi yoki yo'qoladi¹¹.

G.Tokarev madaniy kodni tafakkur yo'sinini aks ettiruvchi matritsaga o'xshatadi. U mental va lisoniy reprezentatsiyalarning mazmuni va shakllarini yo'naltiradi, belgilaydi, deb hisoblaydi¹².

⁵ Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.

⁶ <https://www.epochtimes.ru/content/view/32142/76/>

⁷ Ковшова. М. Л. Кўрсатилган манба. – Б. 41.

⁸ Алефиренко Н. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: учеб. пособие – М.: Флинта, Наука. 2010. – С. 136.

⁹ Ковшова М. Л. Кўрсатилган манба. – Б. 170.

¹⁰ Савицкий В.М. Кўрсатилган манба. – Б. 58.

¹¹ Аванесова, Г. А., Купцова, И. А. Коды культуры: понимание сущности, функциональная роль в культурной практике // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по материалам XLVII Междунар. науч.-практ. конф. №4 (47). Новосибирск: СибАК. 2015. – С. 29.

¹² Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009. – С. 40.

Darhaqiqat, madaniy kodlar matritsadan qolgan izlar singari millat mentalitetidagi o'ziga xos qirralarni chegaralaydi, jamiyat a'zolarining birgalikdagi hayoti uchun zarur me'yorlarni belgilaydi.

Amerikalik psixolog va biznes-maslahatchi K.Rapay o'zining kitobida amerikaliklar mentalligini ochishga qaratilgan izlanishlaridan qiziqarli xulosalar bergan¹³. Uning ta'kidlashicha, kodlar ongimizdagi biror bir tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi¹⁴, ma'lum bir madaniyatda o'rinishgan obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'ladi¹⁵.

Shu fikrimizni dalillash maqsadida yuqorida aytib o'tilgan ta'rifimizni yodga olsak bo'ladi, ya'ni, V.V.Krasnixga tegishli bo'lgan fikr – madaniyat kodlarini borliqqa tashlangan to'rt sifatida tasavvur etadi. "Tafakkurimizga xos bu "to'rt" bizni o'rab turgan olamni qismlarga ajratadi, tartiblashtiradi, shaklga soladi hamda baholaydi"¹⁶. O.A.Svirepo madaniy kodni madaniyat matnlarini o'qish uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar, qadriyat va me'yorlar, ko'rsatmalar yig'indisi sifatida tushunadi¹⁷. D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxetipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari¹⁸ sifatida ta'riflaydi.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda madaniy kodni o'zida madaniyat ustuvorliklarini aks ettiruvchi asosiy tushuncha, ko'rsatma, qadriyat va me'yorlar yig'indisi sifatida ta'riflash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Токарев Г.В. Лингвокультурология. – Тула: Издательство ТГПУ им. Л. Н. Толстого, 2009. – С. 40.
2. Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. –М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.
3. Худойбергanova Д. Лингвокультурологияда маданият код тушунчаси ва талқини//Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 16.
4. Худойбергanova Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 29.
5. Алефиренко Н. Лингвокультурология: ценностно-смысловое пространство языка: учеб. пособие – М.: Флинта, Наука. 2010. – С. 136.
6. Аванесова, Г. А., Купцова, И. А. Коды культуры: понимание сущности, функциональная роль в культурной практике // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по материалам XLVII Междунар. науч.-практ. конф. №4 (47). Новосибирск: СибАК. 2015. – С. 29.

¹³ Каранг: Рапай К. Культурный код. Как мы живем, что покупаем и почему. –М.: Юнайтед Пресс, 2010. – 168 с.

¹⁴ Рапай К. Кўрсатилган манба. – Б. 2.

¹⁵ Рапай К. Кўрсатилган манба. – Б. 31.

¹⁶ Иқтибос манбаси: Худойбергanova Д. Лингвокультурологияда маданият код тушунчаси ва талқини//Ўзбек тили ва адабиёти – Тошкент, 2019. – № 3. – Б. 16.

¹⁷ Каранг: Свирепов О.А. Метафора как код культуры: Дис. ...канд. филос. наук. – Ростов н/Д, 2002. – 162 с.

¹⁸ Худойбергanova Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 29.

7. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 57.
8. Ковшова М.Л. Лингвокультурологический метод во фразеологии. Коды культуры. Изд. 2-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2013. – С. 169.